XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 7-mart VII-6-33-7-105-K/25 Urgut tumani

Xalq deputatlari Urgut tuman Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Urgut tumanining 2024 yilgi mahalliy budjetning tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-132-191-7-105-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 147-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi PF-108-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida va bu boradagi tuman hokimining birinchi o‘rinbosarining 2025 yil 24-yanvardagi 40-sonli bildirgisiga asosan xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining yettinchi chaqiriq,navbatdagi oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Kamolov) xalq deputatlari Urgut tuman Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Urgut tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetning tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-132-191-7-105-K/23-sonli qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Quyidagidalar:

xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Urgut tumanining 2024 yilgi mahalliy budjetning tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-132-191-7-105-K/23-sonli qarori 1-ilovasiga 1-ilovaga muvofiq;

xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Urgut tumanining 2024 yilgi mahalliy budjetning tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-132-191-7-105-K/23-sonli qarori 2-ilovasiga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. Urgut tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan budjet mablag‘larini boshqa hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Urgut tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.To‘ychiyev) tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

Shuningdek, mahalliy budjetlar rejasiga ta’sir etuvchi hukumat qarorlari bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borishni ta’minlasin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Urgut tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Azimurodov), tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Kamolov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



XUDAYKULOV
SHERALI
UMIRZAKOVICH

Xalq deputatlari Urgut tumani
Kengashining
2025-yil 7-martdagi
VII-6-33-7-105-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Urgut tumani mahalliy budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**174 691 064,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	810 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	53 078 000,0
3	Aksiz solig‘i, jami	7 010 500,0
	shu jumladan:	
	- yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	*7 010 500,0*
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 432 150,0
5	Yuridik shaxslar yer solig‘i	12 387 000,0
6	Aylanmadan olinadigan soliq	17 830 000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	23 480 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	35 263 300,0
9	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	5 565 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 033 205,0
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	105 909,0

12	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	9 000,0
13	Yig‘imlar	7 687 000,0

Xalq deputatlari Urgut tumani
Kengashining
2025-yil 7-martdagi
VII-6-33-7-105-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Urgut tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**439 572 950**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	102 214 878
2	Sog‘liqni Saqlash bo‘limi	189 902 602
3	Madaniyat bo‘limi	5 197 160
4	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	21 293 412
5	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	5 089 437
6	Suv yetkazib berish xizmati	1 684 990
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 061 648
8	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh bo‘limi	10 259 679
9	Soliq inspeksiyasi	7 531 500
10	Hokimiyat	94 337 645

Xalq deputatlari Urgut tumani
Kengashining
2025-yil 7-martdagi
VII-6-33-7-105-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Urgut tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan budjet mablag‘larini boshqa hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha o‘zgartirishlar

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Ko‘payishga	Kamayishga
Xarajatlar miqdori, Jami		**2 882 716**	**-2 882 716**
1.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	0	-1 706 426
2.	Sog‘liqni saqlash bo‘limi	68 293	0
3.	Madaniyat bo‘limi	0	-563 989
4.	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	642 745	0
5.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	858 701	0
6.	Suv yetkazib berish xizmati	0	-83 010
7.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	15 797	0
8.	Kambag‘alikkni qisqartirish va banklik bo‘limi	0	-231 812
9.	Soliq inspeksiyasi	0	-297 480
10.	Tuman hokimligi	1 297 180	0